



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

INSONLAR HAYOTIDA HUQUQNING O'RNI

Jo'rayev Avazbek Dilshodbek o'g'li

Farg'onan viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

Telefon:+998908451200

E-mail ovozbekuz@gmail.com

Annotation:

Ushbu maqolada muallif tomonidan insonlar hayotida huquqni o'rni qanchalik zarurligini tushuntirish, ushbu masalani dorzarbligini anglash orqali, huquqni insonlar himoyasi ya'ni foydasi uchun ishlashi zarurligini bilish shartligi haqida fikrlar, faktlar keltirib so'z yuritilgan. Maqsadim demokratik davlatda huquqning ahamiyatini tushuntirish.

Abstract:

In this article, the author explains how important the role of law is in people's lives, by realizing the importance of this issue, it is necessary to know that law should be used for the protection and benefit of people. My goal is to explain the importance of law in a democratic state.

Kalit so'zlari: Inson huquqlarida Konsitutsiyaning o'rni huquq majburiyatları, shaxs, Jamiatdagı huquqni o'rni, Davlatdagı huquqni o'rni.

Key concept : The role of the Constitution in human rights legal obligations, person, place of law in society, place of law in the state.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilindi. Eski tahririda ham O'zbekiston yaxshi maqsad bilan o'zbekona, insonparvarlik prinsipi asosida qurilgan edi. Lekin ushbu yangi tahrirdagi Konsitutsiya o'zbek xalqi nafaqat fuqoroligi bo'limgan ajnabiylarga O'zbekiston Respublikasidagi barcha fuqorolariga ancha imkoniyat yaratdi. Yangilanishi katta tarixiy o'rin egalladi. Ushbu Konsitutsiyani ahamiyati shundaki, insonlarning huquqlari yanada kuchaytirildi. "Huquq insonlar o'rtasida uzulmas bog'langan"



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

degan fikrim o'z ifodasini topmoqda.O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda mustaqillikka chiqishi bilanoq demokratik huquqiy davlat qurush, g'oyasini ilgari surdi.Demokratik huquqiy davlat qurish, ko'p jihatdan, huquqiy ta'lif darajasiga bog'liqdir.Ushbu masalaning yana bir e'tiborli tarafi shundan iboratki, jahon BMT tomonidan 2009-yil- inson huquqlari bo'yicha ta'lif xalqaro yili deb e'lon qilindi BMT ilgari surgan "ta'lif - demokratiya asosi" degan da'vat hamda BMT ning inson huquqlari sohasida ta'limining o'n yilligi hisoblangan 1995-2004-yillari doirasida 1996-yildan boshlab yurtimizning barcha ta'lif maskanlarida "Inson huquqlari" o'quv kursi tatbiq etilgan.Qachonki Davlat huquq sohasini rivojlantirsagina insonlar huquq va majburiyatlarini anglaydilar. Mazkur vaziyatda huquqni anlashda ta'lifning o'rni beqiyosdir. Inson huquqlarini tarixiy ahamiyati ham zarurligi uchun Kirish qismida biroz tarixni esga soldim ushbu tarixga ham 28 yil bo'libdi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil 10-dekabrda (BMT) Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan. O'zbekiston Inson huquqlari deklaratsiyasiga 1994 yilda azo bo'ldi. Bu deklaratsiya, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mos kelishgan davrda qabul qilingan va inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish muvofiqligi ustuvor asosdir. Bu bilan birga, O'zbekiston Xalqaro Inson Huquqlari Hujjatlari va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan deklaratsiyalarga ham rioya qilish barqarorligini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tizimli choralar va qadam-lar, kelgusida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008 yilda Ijtimoiy huquq madaniyatini rivojlantirish va huquqiy madaniyatni oshirish chora-tadbirlari ijro etish- ga oid qarorlari bilan jamlanadi. Hozirgi zamonamiz Hozirgi Prezidentimiz 20.12.2022- yildagi Inson huquqlari masalasi to'g'risidagi majlisida "Oxirgi paytlarda ayrim ushlab turish joylarida inson huquqlari buzilishi bo'yicha og'riqli masalalar ko'tarilmoqda. Bizning yurtimizda bunday holatlar umuman bo'lishi mumkin emas.Kim bunga amal qilmasa, qonun ustuvor, jazo muqarrar bo'ladi. Shu bois, bunday joylarga olib kelingan barcha shaxslarni hisobga olishning onlayn tizimi joriy etiladi va yuzni tanish uskunasi o'nataladi. Hech kim unitishga haqqi yo'q - qonun talablari va inson huquqlari -biz uchun oliy qadriyat", -dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasida ushbu modda judda ham hamma uchun foydali, inson huquqlari davlat hiomoyasida ekanligini tushunib yetamiz. 26-modda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiyonoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. 27-modda ham judda ham foydalidir. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda chekhanishi mumkin emas. Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlash- ga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas. Shaxsni ushslash chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.

Asosiy qism: O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, ko'p sohalarda bo'lgani kabi O'zbekistonda yuridik ta'llimning ko'plab yangi tarmoqlari vujudga kelishiga hamda ularning rivojlanishiga ham imkoniyatlar yaratib berdi. Yangi ijtimoiy munosabatlar parlament huquqi, bank huquqi, soliq huquqi, sug'urta huquqi, inson huquqlari kabi ko'plab yangi huquqiy fanlarning shakllanishiga olib keldi. Bu fanlar mustaqillikdan oldin O'zbekistonda umuman o'qitilmas, qolaversa, esga ham olinmas edi. Masalan, inson huquqlari o'quv kursi XX asrning 90-yillarigacha ilg'or xorijiy mamlakatlarda yuridik mutaxassisliklar tayyorlovchi o'quv yurtlarining asosiy o'quv kurslaridan hisoblangani holda, sovet tuzumi o'quv yurtlarida esa, yuridik ta'llimda bunday o'quv kursi borligini mutaxassislar ham bilmas edi. Chunki, sovet tuzumi inson huquqlarini alohida o'quv kursi, fan tarmog'i sifatida butunlay inkor etar edi. Inson huquqlari qo'pol va tizimli ravishda buziladigan ushbu davlatda, uning mafkurasiga ko'ra, davlat tomonidan inson huquqlarining buzilishi holatlari umuman inkor etilib kelingan hamda alohida individlarning huquq va manfaatlari davlat manfaatidan keyingi o'rinda, ya'ni oxirgi o'rinda deb hisoblangan. Birinchi o'rinda - davlat, keyin esa - jamiyat va eng oxirida shaxs manfaati turar edi. Davlat manfaati yo'lida jamiyat va shaxs manfaatlari poymol etilishi oddiy qonuniy holat hisoblangan, tabiiy huquqlar degan tushuncha esa, umuman inkor etilib kelingan. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti asarlarida "Inson huquqlari" fanining g'oyaviy-nazariy asoslari Mustaqillikka erishilgandan so'ng, ko'plab fanlar qatori "Inson huquqlari" o'quv kursi ham barcha oliy o'quv yurtlari, hatto maktablarga ham majburiy o'quv kurslaridan biri sifatida kiritildi. Sabab, barcha fuqarolar o'z huquq



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

va majburiyatlari to'g'risida, bu sohadagi muammolar to'g'risida tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Huquqiy demokratik davlat qurish uchun aholi yetarli darajada huquqiy savodxon va huquqiy madaniyatli bo'lishi kerak. Shularni e'tiborga olgan holda, 1996-yilning 29-avgustidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z ma'rzasida "Inson huquqlari" o'quv kursini barcha oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga kiritish g'oyasini ilgari surgan edi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'z chiqishlarida va asarlarida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlab berish va ularni himoya qilish davlatning eng oliy vazifasi ekanligini doimiy ravishda qayd etib kelgan. U bunda barcha hokimiyat organlarining faoliyatini birinchi o'rinda inson huquqlarini ta'minlab berishga qaratishga chaqiradi. "Inson huquqlari g'oyasi Oliy Majlis faoliyatida doimiy o'rinni egallashi kerak. Har qanday qonun, harakat sohasidan qat'i nazar, ishlab chiqilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insонning asosiy, buzilmas huquqlariga qanchalik kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ana shu tamoyillarga og'ishmay rioya mos etgan holdagina, biz chin ma'nodagi huquqiy,adolatparvar davlat qurishga erishildi.

Huquqni o'rganishda "huquqiy fikrlashni tarbiyalash juda ham muhim" deb aytishadi. Huquqiy fikrlash foydalanuvchilar tomonidan turli xil ma'noda talqin etilsada, bir so'z bilan aytganda "adolat va tenglik hissi", "qonunni qo'llash jarayonida zarur bo'lган moslashuvchan qaror"dir. Lekin bu ta'riflar juda mavhum bo'lib uni aniq tasavvur qilish qiyin. Avvalo huquqni o'rgangan shaxs qandaydir nizoga duch kelib qolsa, ushbu nizo huquqiy jihatdan hal etiladigan masala yoki yo'qligiga e'tibor qaratadi. Agarda huquqiy jihatdan hal etiladigan masala bo'lsa qonunni qo'llash orqali qanday xulosa chiqarilishini tahminan biladi. Ushbu nizoga nisbatan qaysi qonunning qaysi moddasi qo'llanilishini topib, mazkur moddani o'qib unda nimalar belgilanganini aniq tushunib va bu modda bo'yicha pretsedentlarni ham ko'rib chiqqandan so'ng, o'rgangan qoidalarini nizoga nisbatan tatbiq etadi. Undan keyin esa xulosa chiqarib ko'radi. Bular huquqiy jihatdan fikrlashda juda ham muhim bo'lган elementlardir.

Huquqning tabiatи shaxsiy etika, o'zini-o'zi idora qilish, axloqiy me'yorlar, odat va diniy qoidalar kabi jamiyat qoidalaridan ajratilgan "huquq"ning yana qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekan? Shunday jinoiy ishlar yuz beradiki ularning daxshati televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali barchaga e'lon qilinib,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bizga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Mazkur ishlar aloqador bo'lgan soha jinoyat huquqida jinoyatchi ushlanib, sudda jinoyatchi deb topilsa hokimiyat kuchiga asoslangan holda majburiy ravishda uzoq muddat ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinishi mumkin. Shu sababli, "hokimiyat" va "majburlov kuchi" jinoyat qonunchiligining muhim xususiyatlaridan hisoblanadi. Aybdor; vijdon azobi, jamiyat nafrati, zararning qoplanishi, Ruxsatnomani bekor qilish, Jinoiy jazo. Keling tasavvur qilaylik ma'lum bir jurnalda mashxur bir shaxsning rasmi uning ruxsatisiz bosib chiqarildi. Shuningdek, u haqida yolg'on ma'lumotlar tarqatilib, uning sha'n va qadr-qimmatiga putur yetkazildi deb olaylik. Agarda mazkur vaziyatda shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq huquqlari hamda sha'n va qadr-qimmatiga putur yetkazilgan deb sud tomonidan e'tirof etilsa, unda mazkur jurnal bu shaxsga kompensatsiya to'lashi yoki nashrni chiqarish to'xtatib qo'yilishi yoki bu shaxsdan kechirim so'rash mazmunidagi e'lon chiqarishi talab etilishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda "o'zga shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi bilan bog'liq huquqlarini aslo buza ko'rmanq degan qoidaga bo'ysinilmagan taqdirda, majburiy ravishda yetkazilgan zararni qoplash va nashrni to'xtatib qo'yish kabi choralar (sanksiyalar) qo'llanilishi mumkin. Jamiyatda shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan huquq va majburiyatlar bilan Huquq fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, ma'muriy huquq qoidalari qoida, axloq, diniy qoidalari, odatlar bog'liq nizolarni hal qiluvchi huquq sohasiga fuqarolik huquqi deb ataladi. Bu sohada ham yetkazilgan zararni qoplatish va nashrning chiqarilishini to'xtatib qo'yish kabi hokimiyat kuchi va majburlovga asoslangan vositalardan foydalaniladi.

Majburlov va axloq Huquqqa qarama-qarshi ravishda axloqiy qoidalalar kabi jamiyat qoidalari hokimiyat kuchiga asoslangan majburlovni o'zida mujassam etmaydi. Bu ularning huquq bilan eng katta farqidir. Masalan, restoranga kirib biror taom buyurtma qildik deb faraz qilaylik. Bu ham shartnomaning bir turidir. Bu shartnomaga ko'ra buyurtma qilgan shaxs pulni to'lash majburiyatini olsa, restoran taomni taqdim etish majburiyatini bajarishi kerak. Bu fuqarolik huquqidagi majburiyatlarni bajarish deb nomlanuvchi huquqiy majburiyatdir. Huquqiy majburiyat bo'lganligi uchun ham, agarda bajarilmasa hokimiyat kuchiga asoslangan holda majburiy ravishda ijro ettirilishi mumkin. Agar to'lov to'lanmaydigan bo'lsa nazariy jihatdan sudning hokimiyat kuchiga asoslanib to'lov undiriladi. Boshidan to'lash niyati bo'lmasdan turib taom buyurtma qilingan bo'lsa, buyurtma qilingan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

paytda firibgarlik jinoyati vujudga keladi. Bunday xolatda esa inson tegishli joyga murojat etadi va Jinoyat kodekisi 168-moddaga Firibgarlik

Firibgarlik, ya'ni aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganining mulkini yoki o'zganining mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Adolat va huquqiy barqarorlik Huquq o'z maqsad va mavjudlik sabablariga egadir. huquqiy barqarorlikni ta'minlash juda ham muhimdir. Lekin amaliyotda ro'y beradigan nizolarning barchasi bir-biridan farq qilgani bois, ularni mutloq bir xil tartibga solishning imkonи mavjud emas. Ma'lum bir nizo yuzaga kelgan vaqtida uning muammosi, mavzusi hamda nizolashilayotgan nuqtasiga e'tibor qaratib, xuddi sudlarda amalga oshirilayotgandek qarash kerak.

Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquqning ahamiyati. XX asrga kelib inson huquqlari muammosi bir davlat yurisdiksiyatsidan tashqariga chiqa boshladi. Ayniqsa, Ikkinci jahon urushining dahshatli oqibatlari inson huquqlarini himoya qilish sohasida maxsus xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va ularni himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmni yaratishni xalqaro hamjamiyat oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bu esa, o'tgan davr mobaynida, inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy asoslari hamda mexanizmlari shakllanishiga olib keldiki, natijada, hozirgi zamon xalqaro huquqida inson huquqlarining xalqaro himoyasi tushunchasi paydo bo'ldi. Inson huquqlarining xalqaro himoyasi bu inson huquqlari va erkinliklarini, ushbu huquq va erkinliklarning davlatlar tomonidan amalda hayotga tatbiq etilishi bo'yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilab beruvchi va mustahkamlovchi huquqiy normalar yig'indisi, shuningdek, ushbu huquq sohasi bo'yicha davlatlar o'z majburiyatlarini bajarishi ustida xalqaro nazorat mexanizmi va alohida shaxsnинг buzilgan huquqlarini bevosita himoya qilishdir'. Demak, xalqaro huquqning turli sohalari kabi bugungi kunda xalqaro huquqda inson huquqlari ("Mejdunarodnoye pravo prav cheloveka", "International human rights law") nomida alohida ham inson huquqlari, ham xalqaro huquqning o'zaro tutashgan maxsus sohasi vujudga keldi. huquqlari bo'yicha xalqaro huquq ayni xalqaro huquqning shunday tam g'iki, unda davlatlardan tashqari muayyan bir shaxs va shaxslar ganás ham xalqaro huquq subyekti sifatida qaraladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq xuddi shu jihatni bilan xalqaro huquqning boshqa ko'pgina



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tarmoqlaridan farq qiladi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning xalqaro huquq tizimida tutgan o'mni haqida, shuningdek, uning xalqaro huquqning boshqa sohalari bilan munosabatlari to'g'risida hozirgi kungs qadar bahs-munozara yuritib kelinayotganligi bejiz emas, albatta. Shunga qaramay, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, umuman olganda, xalqaro huquq bilan bir xil ko'rsatkichlarga ega. Har ikkala huquq ning, xususan:

birinchidan, manbalari bir bo'lib, bular xalqaro shartnomalar, xalqaro odatlar, xalqaro konferensiya yoki kengashlarning hujjatlari va shu singan hujjatlardir; ikkinchidan, maqsadlari bir bo'lib, bu tinchlik va hamkorlikni ta'minlashdan iborat; uchinchidan, tamoyillari bir bo'lib, bu suverenitet tamoyili, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi va shu kabi tamoyillarda namoyon bo'ladi; to'rtinchidan, norma yaratish usullari bir xil bo'lib, ular xalqaro mu loqot subyektlarining o'z xohish-irodalarini erkin bildirishlariga asoslanadi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning o'ziga xos jihatlari uni xalqaro huquqning boshqa tarmoqlari bilan qiyoslaganda, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi. Inson huquqlariga oid xalqaro huquqning rivojlanishida yana bir omil. Ya'ni, xalqaro huquqning milliy huquqqa nisbatan ustuvorligi omili ham muhim rol o'yynamoqda. Chunki, davlatlar bu sohada o'zaro kelishish orqali majburiyatlar olar ekan, bu majburiyatlarni bajarishni o'z tashqi siyosatining muhim vazifalaridan biri sifatida e'tirof etmoqdalar. Xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi ham xalqaro huquqning milliy huquqqa nisbatan tuvorligini e'tirof etadi va bu bilan inson huquqlari sohasida o'zi qo'shilgan xalqaro huquq normalari va tamoyillariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada e'lon qilgan. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini muqaddimasida: "...xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda...", deb ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek. Konstitutsianing 2-bo'limi, 19-64-moddalari to'liq inson huquqlari va erkinliklari masalasiga bag'ishlangan. xalqaro huquqning turli sohalari bilan chambarchas Inson huquqlari bog'liq ravishda, ya'ni, o'zaro ta'sir ko'rsatish yo'li bilan rivojlanib bormoqda. Bu sohalarga xalqaro odat huquqi, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro tashkilotlar huquqi, xalqaro gumanitar huquq kabi xalqaro huquq sohalarini kiritish mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Xulosa:

Mening fikrimcha ushbu, bizning tariximiz eng sinovli davrdan o'tgan,o'zbekning buyuk insonlari mashxur yozuvchilarimiz huquqlari poymol qilinganligi guvohimiz. Bu naqadar ayanchlidir sobiq sovet davrda inson huquqlari oyoq osti qilinishi,va millatga bo'lgan yovuzliklarini oqlab bo'lmaydi.O'zbekistonning maqsadi yuqorida takitlaganimdek huquqiy demokratik davlat tuzish g'oyasini ilgari surgan. Hozirgi davrimiz esa erkinlik davri O'zbekiston inson huquqlarini himoyasini kafolatlab qo'ydi.Hozirgi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan fikirlari ammalda ko'rib turubmiz. Insonlar huquqni tushuna bilishi, orqali majburiyatlarini ham anglashi zarur deb bilaman. Davlat huquq orqali barcha normalarni tartibga soladi.Yana bir muhim fikirni aytib o'tishim kerak,Insonlarni huquqiy madaniyatini oshirish uchun biz huquqiy islohotlarni kuchaytirishimiz kerak.bu masalada huquqiy kinolar, huquqiy qo'shiqlar,Vatan tuyg'usini kuchaytiradigan tasirli kino va qo'shiqlar, she'rlar, turli-xil asarlar, yaratishimiz kerakdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konsitutsiyasi 2023-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan."O'ZBEKISTON" TOSHKENT – 2023-yil.
- 2.Inson huquqlari darslik [ikkinchi nashr].Toshkent "Adolat" 2013-yil B. 8-95 .
- 3.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
- 4.Saidov A.X Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq.Darslik T,:Konsauditinform-Nashr,2006-yil B.58.
- 5.Huquq faniga kirish.O'quv qo'llanma|Makoto ito, A.M.Xakimov.,A.I.Umirdinov tarjimasi-Toshkent Lesson Press nashiriyoti 2019-yil B.9-65.